TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING JORIY HOLATI VA O'ZGARISH TENDENSIYALARI TAHLILI	953
Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING STRATEGIK YONDASHUVLARI	960
Siradjev Ilxom Toxirovich	
CHET EL MAMLAKATLARIDA FMCG SEKTORINING TUZILISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI....	965
Anvar Deberdiyev	
MARKETING FAOLIYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA REAL INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI SSNARIYLAR ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH	970
Otajanov Umid Abdullayevich, Isakova Naima Ikromjonovna	
TIJORAT BANKLARI O'RTASIDAGI RAQOBATNI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN INTEGRALLASHGAN METODOLOGIK MODEL.....	981
Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY MASALALARI.....	986
Tilakov Navruz Maxmudovich	
NODAVLAT OLİY TA'LIM MUASSASASINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA USTAV FONDI MEXANIZMINING ROLI	993
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARIGA AJRATILAYOTGAN MABLAG'LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI	999
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
ELEKTRON TIJORATDA MOLİYAVIY RISKLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1004
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	



DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA EKOLOGIK MARKIROVKALASHNI JORIY ETISH MASALALARI ..	1010
Ro'zimurodova Charos O'ral qizi	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT OPERATSIYALARINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1014
Rahimov Akmal Matyaqubovich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	1021
Raxmanov Zafarjon Yashinovich	
KORXONALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING AYRIM YO'NALISHLARI	1025
Eshkuvatov Aziz Baxtiyorovich	
O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINING AMALDAGI HOLATI, MUAMMOLARI VA BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	1029
Qahharov Zuhridin Zafarbek o'g'li	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ ИНДИКАТОРОВ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ	1034
Маликова Дилрабо Муминовна	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ ОТЕЧЕСТВЕННЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ.....	1040
Назарова Гулчехра Нурмухамбетовна	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI	1047
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li	
O'ZBEKISTON BALIQCHILIK TARMOG'IDA IAS 41 "BIOLOGIK AKTIVLAR" STANDARTINI JORIY ETISH: METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY TAVSIYALAR.....	1055
Shodiyev Aslam Rahmatilloevich	



UDC: 657.421.3:639.3(575.1)

O'ZBEKISTON BALIQCHILIK TARMOG'IDA IAS 41 "BIOLOGIK AKTIVLAR" STANDARTINI JORIY ETISH: METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY TAVSIYALAR

Shodiyev Aslam Rahmatilloevich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: aslam.shodiyev1990@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston baliqchilik tarmog'ida IAS 41 "Qishloq xo'jaligi" standartini joriy etishning metodologik asoslari va amaliy tavsiyalari ko'rib chiqiladi. "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasiga a'zo beshta klasterning 2019–2024-yillardagi ma'lumotlari asosida amaldagi buxgalteriya hisobi amaliyoti hamda IAS 41 talablari o'rtasidagi tafovutlar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan metodologik yondashuv ishlab chiqildi. Taklif etilayotgan metodologiya quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi: (1) milliy schyotlar rejasiga to'rtta yangi schyotni (0270, 0271, 9050, 9430) kiritish; (2) IFRS 13 talablari asosida haqqoniy qiymatning uch darajali iyerarxiyasini qo'llash; (3) namunaviy buxgalteriya provodkalari va hisob yozuvlarini joriy etish. Ikki namunaviy hisob-kitob natijalari an'anaviy tannarx usulida biologik aktivlar qiymati baliq turi va o'sish bosqichiga qarab 25–42 foizgacha noto'g'ri aks ettirilishini ko'rsatdi. Taklif etilayotgan metodologiya baliqchilik klasterlarining xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiqligini ta'minlash, moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish hamda investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: IAS 41, biologik aktivlar, haqqoniy qiymat, baliqchilik, akvakultura, MHXS adaptatsiyasi, buxgalteriya hisobi, O'zbekiston.

Abstract. The article examines the methodological foundations and practical recommendations for implementing IAS 41 "Agriculture" in Uzbekistan's fishery sector. Based on data from five clusters of the "O'zbekbaliqsanoat" Association covering the period 2019–2024, the study identifies gaps between current accounting practices and the requirements of IAS 41 and develops a methodological framework to address them. The proposed methodology includes: (1) introducing four new accounting accounts (0270, 0271, 9050, and 9430) into the national chart of accounts; (2) applying the three-level fair value hierarchy in accordance with IFRS 13; and (3) using standard accounting journal entries. Two illustrative case studies demonstrate that the traditional historical cost approach may overstate or understate the value of biological assets by 25–42%, depending on fish species and growth stage. The proposed methodology enhances compliance with International Financial Reporting Standards (IFRS), improves the transparency of financial reporting, and strengthens the investment attractiveness of fishery clusters.

Keywords: IAS 41, biological assets, fair value, fishery, aquaculture, IFRS adaptation, accounting, Uzbekistan.

Аннотация. В статье рассматриваются методологические основы и практические рекомендации по внедрению стандарта IAS 41 «Сельское хозяйство» в рыбохозяйственной отрасли Узбекистана. На основе данных пяти кластеров ассоциации «O'zbekbaliqsanoat» за 2019–2024 годы выявлены различия между действующей практикой бухгалтерского учёта и требованиями IAS 41, а также разработан методологический подход к их устранению. Предлагаемая методология включает: (1) введение четырёх новых бухгалтерских счетов (0270, 0271, 9050, 9430); (2) применение трёхуровневой иерархии справедливой стоимости в соответствии с IFRS 13; (3) использование типовых бухгалтерских проводок. Два расчётных примера показывают, что традиционный метод оценки по себестоимости приводит к завышению или занижению стоимости биологических активов на 25–42 % в зависимости от вида рыбы и стадии её роста. Предлагаемая методология способствует повышению сопоставимости финансовой отчётности с международными стандартами, её прозрачности и инвестиционной привлекательности рыбохозяйственных кластеров.

Ключевые слова: IAS 41, биологические активы, справедливая стоимость, рыбное хозяйство, аквакультура, адаптация МСФО, бухгалтерский учёт, Узбекистан.



KIRISH

Bugungi kunda baliqchilik tarmog'i dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega. FAO ma'lumotlariga ko'ra [1], so'nggi yillarda suv hayvonlari mahsuloti hajmi 185 million tonnaga yetgan bo'lib, birinchi marta akvakultura hajmi tabiiy ovlash hajmidan oshib, umumiy ishlab chiqarishning 57 foizini tashkil etgan. Ushbu tendensiya tabiiy suv havzalaridagi baliq zaxiralarining kamayishi va aholining baliq mahsulotlariga bo'lgan talabining ortishi bilan izohlanadi.

O'zbekistonda ham mazkur soha jadal rivojlanmoqda. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, baliq ishlab chiqarish hajmi 2017-yildagi 83,9 ming tonnadan 2024-yilda 199,4 ming tonnaga yetib, 2,4 baravarga oshgan.

Shu bilan birga, buxgalteriya hisobi amaliyoti soha o'sish sur'atlari bilan to'liq uyg'unlashishni talab etmoqda. Tirik baliq, chavoqlar va inkubatsiya mahsulotlari amaliyotda ko'pincha tarixiy tannarx asosida tugallanmagan ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot sifatida hisobga olinadi. Bunday yondashuv biologik transformatsiyaning iqtisodiy mohiyatini yetarlicha aks ettirmaydi hamda klasterlarning haqiqiy iqtisodiy qiymati bilan buxgalteriya qiymati o'rtasida tafovut yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Xalqaro hisobot amaliyotida esa IAS 41 "Qishloq xo'jaligi" standarti biologik aktivlarni haqqoniy qiymatdan sotish xarajatlari chegirilgan holda baholashni belgilaydi [5].

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi O'zbekiston baliqchilik tarmog'ida IAS 41 standartini joriy etish uchun metodologik asosni ishlab chiqish, milliy schyotlar rejasiga zarur o'zgartirishlar taklif etish va namunaviy hisob-kitoblar orqali uning amaliy qo'llanilishini ko'rsatishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Biologik aktivlar hisobining nazariy asosiga ko'ra, IAS 41 standartining konseptual mohiyati shundan iboratki, biologik aktivlarda biologik transformatsiya, ya'ni o'sish, rivojlanish, mahsulot berish va ko'payish jarayonlari natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlar tarixiy tannarx hisobi orqali to'liq aks ettirilmaydi. Boshqaruv hisobi klassiklari Drury [6] hamda Horngren va boshqalar [7] an'anaviy tannarx modellari aktivlarning statik xususiyatlariga asoslanishini ko'rsatgan. Bu esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining dinamik tabiatiga to'liq mos kelmaydi. Vahrushina [8] ushbu tahlilni MDH mamlakatlari misolida kengaytirib, tarixiy tannarxdan haqqoniy qiymatga o'tish milliy buxgalteriya tizimini jiddiy takomillashtirishni talab etishini ta'kidlaydi.

IAS 41 ni joriy etish bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda Elad [9] birinchilardan bo'lib qishloq xo'jaligi hisoboti uchun haqqoniy qiymat hisobining ta'sirlarini tahlil qilgan va turli milliy tizimlarni uyg'unlashtirish bilan bog'liq muammolarni aniqlagan. Elad va Herbohn [10] Buyuk Britaniya, Fransiya va Avstraliyadagi 103 ta kompaniya faoliyatini o'rganib, uchta doimiy muammoni qayd etgan: faol bozor mavjud bo'lmaganda haqqoniy qiymatni aniqlashdagi qiyinchiliklar, hisobot foydasining tebranuvchanligi hamda kichik ishlab chiqaruvchilarga nomutanosis ta'sir ko'rsatuvchi yuqori joriy etish xarajatlari.

Keyingi empirik tadqiqotlar natijalari turlicha xulosalarni ko'rsatadi. Argilés va boshqalar [11] Ispaniya fermer xo'jaliklarida haqqoniy qiymat bo'yicha baholash moliyaviy axborotning kelajakdagi pul oqimlarini prognozlash imkoniyatini oshirishini aniqlagan. Huffman [12] esa mazkur samara aktivdan foydalanish turiga bog'liqligini, ya'ni "sotish uchun" mo'ljallangan aktivlarda haqqoniy qiymat yuqoriroq axborot ahamiyatiga ega ekanligini, "foydalanish uchun" mo'ljallangan aktivlarda esa investorlar uni nisbatan ehtiyotkor baholashini ko'rsatgan. Ushbu natijalar sotishga mo'ljallangan tirik baliq uchun haqqoniy qiymat bo'yicha baholash ayniqsa dolzarb ekanligini anglatadi.

O'zbekiston va mahalliy buxgalteriya adabiyotlarida Aliqulov A. I. [13] hamda Hasanov B. A. va Xoshimov A. A. [14] mamlakatda boshqaruv hisobi va buxgalteriya hisobini modernizatsiya qilishning keng masalalarini yoritgan. Shu bilan birga, IAS 41 standartining baliqchilik tarmog'iga maxsus qo'llanilishi akademik adabiyotlarda tizimli ravishda yetarlicha o'rganilmagan. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo akvakulturasini uchun biologik aktivlar hisobining metodologik asosi hali to'liq shakllanmagan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda hujjatli tahlil, keys-stadi va metodologik asos ishlab chiqishni birlashtiruvchi aralash usullar yondashuvi qo'llanildi. Tadqiqot dizayni uch bosqichdan iborat: (1) klasterlarning amaldagi buxgalteriya hisobi amaliyotini tahlil qilish; (2) milliy standartlar bilan IAS 41 talablari o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash, ya'ni bo'shliq tahlilini amalga oshirish; (3) standartni joriy etish uchun metodologik asosni ishlab chiqish va uni namunaviy hisob-kitoblar orqali sinovdan o'tkazish.

Birlamchi ma'lumotlar «O'zbekbaliqsanoat» uyushmasiga a'zo beshta baliqchilik klasteridan 2019–2024-yillar uchun to'plandi [15]; ikkilamchi ma'lumotlar esa Statistika agentligi va soha hisobotlaridan olindi. Tadqiqot obyektlari quyidagi mezonlar asosida tanlandi: (a) 2019–2024-yillarda uzluksiz faoliyat yuritganligi; (b)



uyushmaga a'zoliqi; (v) to'liq ishlab chiqarish sikliga ega ekanligi, ya'ni inkubatsiya, chavoq yetishtirish, tovar baliq ishlab chiqarish va qayta ishlash bosqichlarini qamrab olishi; (g) yillik ishlab chiqarish hajmi 500 tonnadan yuqori bo'lishi.

Tahliliy asos BHMS va IAS 41 talablari qiyosiy tahlilini, biologik aktivlar uchun IFRS 13 bo'yicha haqqoniy qiymat iyerarxiyasini amaliyotga moslashtirishni [16] hamda yangi schyotlar va buxgalteriya yozuvlarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Tirik baliqqa qo'llaniladigan haqqoniy qiymat iyerarxiyasi IFRS 13 ning uch darajali tuzilmasiga mos keladi:

- 1-daraja — faol bozorlardagi kotirovkalangan narxlar, masalan, yirik ulgurji baliq bozorlari narxlar;
- 2-daraja — kuzatish mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlar, jumladan, mintaqaviy bozorlardagi o'xshash baliq turlari narxlar, tirik vaznga moslab tuzatilgan holda;
- 3-daraja — kuzatib bo'lmaydigan ma'lumotlar, masalan, osyotr kabi noyob turlar uchun diskontlangan pul oqimi (DCF) modellari.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston baliqchilik klasterlarida buxgalteriya hisobining amaldagi holati va IAS 41 talablari o'rtasidagi tafovutlarni kompleks baholash moliyaviy hisobotni takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratadi. Mazkur maqsadda beshta klasterning 2019–2024-yillardagi ishlab chiqarish dinamikasi va amaldagi buxgalteriya hisobi amaliyoti tahlil qilindi.

Beshta klaster faoliyati bo'yicha o'tkazilgan tahlil sohada barqaror o'sish dinamikasi mavjudligini ko'rsatdi (1-jadval).

1-jadval

Tanlangan baliqchilik klasterlari ishlab chiqarish dinamikasi, 2019–2024 (tonna)

Klaster	2019	2020	2021	2022	2023	2024
A-Klaster (Samarqand)	680	850	1 020	1 100	1 180	1 200
B-Klaster (Toshkent)	420	560	680	750	820	850
V-Klaster (Xorazm)	280	340	380	410	440	450
G-Klaster (Andijon)	220	270	310	330	350	350
D-Klaster (Sirdaryo)	180	220	260	290	320	350
Jami	1 780	2 240	2 650	2 880	3 110	3 200

Manba: klasterlarning moliyaviy hisoboti asosida muallif tomonidan tuzilgan.[15]

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, beshta klaster bo'yicha jami ishlab chiqarish hajmi 2019–2024-yillar davomida 1 780 tonnadan 3 200 tonnaga yetib, 79,8 foizga oshgan. O'rtacha yillik o'sish sur'ati esa 12,4 foizni tashkil etgan. Biroq tadqiq etilgan klasterlarning birortasida ham IAS 41 standarti qo'llanilmaydi: tirik baliq amaliyotda tarixiy tannarx asosida tugallanmagan ishlab chiqarish (2010-schyot) yoki tayyor mahsulot (2810-schyot) sifatida hisobga olinmoqda.

Amaldagi BHMS amaliyoti bilan IAS 41 talablari o'rtasidagi asosiy tafovutlar 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval

Biologik aktivlar hisobida BHMS amaliyoti va IAS 41 talablarining qiyosiy tahlili

Jihat	Amaldagi BHMS amaliyoti	IAS 41 talabi
Tan olish obyekti	Tugallanmagan ishlab chiqarish / tayyor mahsulot	Biologik aktiv — tirik baliq
Baholash bazasi	Tarixiy tannarx	Haqqoniy qiymatdan sotish xarajatlari chegirilgan holda
Qiymat o'zgarishi	Sotish jarayoni sodir bo'lguncha tan olinmaydi	Har bir hisobot sanasida tan olinadi
Biologik transformatsiya	Alohida aks ettirilmaydi	Daromad yoki zarar sifatida tan olinadi
Qo'llaniladigan schyotlar	2010 / 2810	0270, 0271 / 9050, 9430

Manba: muallif tomonidan BHMS va IAS 41 qoidalari asosida tuzilgan.

Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, an'anaviy hisob usuli biologik transformatsiya natijasini sotish jarayoni sodir bo'lguncha tan olmaydi. IAS 41 standarti esa biologik aktivlar qiymatidagi o'zgarishlarni har bir hisobot sanasida aks ettirishni talab etadi. Ushbu tafovut klasterlarning moliyaviy



ko'rsatkichlarida sezilarli farqlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Bo'shliq tahlili asosida uchta tarkibiy qismdan iborat metodologik asos taklif etiladi. Biologik aktivlarni tan olish va hisobga olish uchun milliy schyotlar rejasiga to'rtta yangi schyotni kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval

Biologik aktivlar uchun taklif etilayotgan yangi schyotlar

Schyot	Schyot nomi	Qo'llanish maqsadi
0270*	Biologik aktivlar	IAS 41 talablariga muvofiq tan olinadigan tirik baliq, naslli baliq va chavoqlar hisobini yuritish.
0271*	Yetishtirilayotgan biologik aktivlar	Sotish maqsadida o'stirilayotgan biologik aktivlar, jumladan o'sish bosqichidagi tovar baliqlarini hisobga olish.
9050*	Biologik transformatsiyadan olingan daromad	Biologik aktivlar haqqoniy qiymatining oshishi natijasida yuzaga kelgan daromadni e'tirof etish.
9430*	Biologik transformatsiyadan ko'rilgan zarar	Biologik aktivlar haqqoniy qiymatining kamayishi natijasida yuzaga kelgan zararni e'tirof etish.

Izoh: yulduzcha (*) taklif etilayotgan yangi schyotlarni bildiradi.

Uslubiyatning amaliy qo'llanilishi ikkita namunaviy misol orqali ko'rsatildi. Mazkur misollar ikki xil vaziyatni, ya'ni haqqoniy qiymat tannarxdan past bo'lgan holatni (1-misol) va haqqoniy qiymat tannarxdan yuqori bo'lgan holatni (2-misol) qamrab oladi.

1-misol. Karp havzasi — haqqoniy qiymat tannarxdan past bo'lgan holat. Ochilish qoldig'i (01.01.2024): 1 500 kg, balans qiymati 35 mln so'm. Yil davomida amalga oshirilgan xarajatlar: ozuqa — 88 mln so'm, mehnat — 16 mln so'm, amortizatsiya — 9 mln so'm, veterinariya — 4 mln so'm, boshqa xarajatlar — 8 mln so'm. Jami xarajatlar 125 mln so'mni tashkil etadi. Yopilish qoldig'i (31.12.2024): 4 000 kg, bozor narxi 32 000 so'm/kg.

An'anaviy usulda tannarx quyidagicha aniqlanadi:
 $35 + 125 = 160$ mln so'm.

IAS 41 bo'yicha haqqoniy qiymat quyidagicha hisoblanadi:
 $4\,000 \times 32\,000 = 128$ mln so'm.

Biologik transformatsiyadan olingan natija:
 $128 - 35 - 125 = -32$ mln so'm.

Demak, ushbu holatda 32 mln so'mlik zarar yuzaga keladi va u 9430-schyotda aks ettiriladi. An'anaviy buxgalteriya qiymati 160 mln so'mni, haqqoniy qiymat esa 128 mln so'mni tashkil etadi. Natijada aktiv haqqoniy qiymatga nisbatan 25,0 foizga ortiqcha baholangan.

2-misol. Forel havzasi — haqqoniy qiymat tannarxdan yuqori bo'lgan holat. Ochilish qoldig'i (01.01.2024): 600 kg, balans qiymati 15 mln so'm. Yil davomida amalga oshirilgan xarajatlar: ozuqa — 62 mln so'm, mehnat — 12 mln so'm, amortizatsiya — 6 mln so'm, veterinariya — 4 mln so'm, boshqa xarajatlar — 6 mln so'm. Jami xarajatlar 90 mln so'mni tashkil etadi. Yopilish qoldig'i (31.12.2024): 3 000 kg, bozor narxi 60 000 so'm/kg.

An'anaviy usulda tannarx quyidagicha aniqlanadi:

$15 + 90 = 105$ mln so'm.

IAS 41 bo'yicha haqqoniy qiymat quyidagicha hisoblanadi:

$3\,000 \times 60\,000 = 180$ mln so'm.

Biologik transformatsiyadan olingan natija:

$180 - 15 - 90 = +75$ mln so'm.

Demak, ushbu holatda 75 mln so'mlik daromad yuzaga keladi va u 9050-schyotda aks ettiriladi. An'anaviy buxgalteriya qiymati 105 mln so'mni, haqqoniy qiymat esa 180 mln so'mni tashkil etadi. Natijada aktiv haqqoniy qiymatga nisbatan 41,7 foizga kam baholangan.

Yuqoridagi ikki holat bo'yicha asosiy buxgalteriya yozuvlari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Namunaviy buxgalteriya yozuvlari (provodkalar)

Xo'jalik muomalasi	Debet	Kredit	Summa, mln so'm
Yil davomida amalga oshirilgan xarajatlarni yetishtirilayotgan biologik aktivga kapitallashtirish	0271	1010, 6710, 0290 va boshqalar	125 (1-misol); 90 (2-misol)



Yil oxirida haqqoniy qiymatga keltirish — qiymat pasayishi (1-misol)	9430	0271	32
Yil oxirida haqqoniy qiymatga keltirish — qiymat o'sishi (2-misol)	0271	9050	75
Tovar baliq sotilganda biologik aktivni hisobdan chiqarish	9010	0271	Haqqoniy qiymat bo'yicha

Manba: muallif tomonidan IAS 41 va IFRS 13 talablari asosida ishlab chiqilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tafovutning yo'nalishi va kattaligi, ya'ni 25–42 foiz oralig'idagi farq, bozor sharoiti va biologik aktivlarning o'sish fazasiga bog'liq. IAS 2 standartidagi "tannarx va sof sotish qiymatidan kichigi" qoidasi 1-misoldagi ortiqcha baholashni qisman tuzatadi. Biroq ushbu yondashuv faqat qiymat pasayishini tan oladi. IAS 41 esa biologik aktivlar qiymatining o'sishi va pasayishini simmetrik ravishda aks ettiradi hamda o'sish fazasida yuzaga keladigan amalga oshirilmagan daromadni o'z vaqtida tan olish imkonini beradi (2-misol). Bu esa moliyaviy axborot sifatini sezilarli darajada oshiradi [11; 12].

Taklif etilayotgan uslubiyat qator afzalliklarga ega. Xususan, u: (a) xorijiy investorlar uchun moliyaviy hisobot shaffofligini oshiradi; (b) klaster rahbariyatiga resurslarni rejalashtirish va narx belgilash jarayonida aniqroq axborot taqdim etadi; (v) xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bilan mutanosiblikni ta'minlaydi [9; 10]. Shu bilan birga, mazkur uslubiyatni joriy etish ayrim cheklovlarni ham yuzaga keltiradi. O'zbekistonda tirik baliq uchun faol bozor cheklangan bo'lgani sababli ko'p hollarda ikkinchi va uchinchi darajali baholash usullariga tayanish zarur bo'ladi. Bu esa baholash jarayonida subyektivlik darajasini hamda xodimlar malakasiga qo'yiladigan talablarni oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston baliqchilik tarmog'ida IAS 41 "Qishloq xo'jaligi" standartini joriy etish uchun yaxlit metodologik asos taqdim etildi. Beshta klasterning 2019–2024-yillardagi faoliyati tahlili ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishini, ya'ni o'rtacha yillik 12,4 foizlik o'sish sur'atini ko'rsatdi (1-jadval). 2-jadvalda amaldagi buxgalteriya hisobi amaliyoti va IAS 41 talablari o'rtasidagi tizimli tafovutlar, 3–4-jadvallarda esa ularni bartaraf etish yo'llari aks ettirildi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

An'anaviy tannarx asosidagi hisob baliqchilik korxonasi aktivlari qiymatini baliq turi va o'sish fazasiga qarab taxminan 25–42 foiz doirasida yuqori yoki past aks ettirishi mumkin. IAS 41 asosidagi uslubiyat boshqaruv organlari, investorlar va tartibga soluvchi tashkilotlar uchun ishonchliroq moliyaviy axborot taqdim etadi.

Milliy schyotlar rejasiga to'rtta yangi schyotni — 0270, 0271, 9050 va 9430 schyotlarini kiritish biologik aktivlarni IAS 41 talablari asosida hisobga olish imkonini beradi.

IFRS 13 bo'yicha haqqoniy qiymatning uch darajali iyerarxiyasi O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi mumkin. Ko'pgina baliq turlari uchun 2-daraja, ya'ni mintaqaviy bozor narxlariga asoslangan baholash, noyob turlar uchun esa 3-daraja, ya'ni diskontlangan pul oqimlari (DCF) modeli asosiy baholash yo'nalishi bo'lishi mumkin.

Taklif etilayotgan uslubiyat klasterlarning xalqaro standartlarga mutanosibligini ta'minlash, moliyaviy hisobot shaffofligini oshirish va investitsiya jalb etish salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasi hamkorligida baliqchilik tarmog'i uchun IAS 41 bo'yicha maxsus sohaviy metodik qo'llanma ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, IAS 41 standartini joriy etishni bosqichma-bosqich amalga oshirish zarur: dastlab yirik klasterlardan boshlash, so'ngra to'plangan tajribani o'rta va kichik baliqchilik xo'jaliklariga tatbiq etish lozim.

Uchinchidan, O'zbekistonda baliq mahsulotlari uchun faol bozorni rivojlantirish maqsadida mintaqaviy ulgurji bozorlar infratuzilmasini shakllantirish zarur. Bu 1-darajali haqqoniy qiymat baholash imkoniyatlarini kengaytiradi.

To'rtinchidan, buxgalterlar va auditorlarning IAS 41 talablari bo'yicha malakasini oshirish kurslarini tashkil etish, shuningdek, IoT datchiklari va raqamli texnologiyalar yordamida biomassani avtomatik o'lchash imkoniyatlarini o'rganish maqsadga muvofiq.

Kelgusidagi tadqiqotlarda IAS 41 standartini joriy etishning klasterlar moliyaviy faoliyatiga uzoq muddatli ta'sirini baholash, Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha qiyosiy tahlillar o'tkazish hamda raqamli texnologiyalar integratsiyasini o'rganish mumkin. Mazkur tadqiqot natijalari baliqchilik korxonalarida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish, tartibga soluvchi organlar uchun sohaviy metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish hamda investitsion qarorlarni qabul qilishda ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–83-sonli qarori, 2022-yil 13-yanvar [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/5828497>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustdagi PQ–281-sonli qarori [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz>.
3. Aliqulov A. I. Xarajatlar hisobi va tahlilining nazariy hamda amaliy masalalari: monografiya / A. I. Aliqulov. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. – 188 b.
4. Argilés J. M., Garcia-Blandon J., Monllau T. Fair value versus historical cost-based valuation for biological assets: Predictability of financial information // Revista de Contabilidad. – 2011. – Vol. 14. – No. 2. – P. 87–113.
5. Drury C. Management and Cost Accounting / C. Drury. – 10th ed. – Andover: Cengage Learning, 2018. – 832 p.
6. Elad C. Fair value accounting in the agricultural sector: Some implications for international accounting harmonisation // European Accounting Review. – 2004. – Vol. 13. – No. 4. – P. 621–641.
7. Elad C., Herbohn K. Implementing Fair Value Accounting in the Agricultural Sector: The UK, Australia and France / C. Elad, K. Herbohn. – Edinburgh: ICAS, 2011.
8. FAO. The State of World Fisheries and Aquaculture 2024. – Rome: FAO, 2024. – 240 p.
9. Hasanov B. A., Xoshimov A. A. Boshqaruv hisobi: darslik / B. A. Hasanov, A. A. Xoshimov. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2013. – 328 b.
10. Horngren C. T., Datar S. M., Rajan M. V. Cost Accounting: A Managerial Emphasis / C. T. Horngren, S. M. Datar, M. V. Rajan. – 15th ed. – Harlow: Pearson, 2015. – 960 p.
11. Huffman A. Asset use and the relevance of fair value measurement: Evidence from IAS 41 // Review of Accounting Studies. – 2018. – Vol. 23. – No. 4. – P. 1274–1314.
12. International Accounting Standards Board (IASB). IAS 41 Agriculture. – London: IFRS Foundation, 2014.
13. International Accounting Standards Board (IASB). IFRS 13 Fair Value Measurement. – London: IFRS Foundation, 2011.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy ma'lumotlari [Elektron resurs]. – URL: <https://stat.uz>.
15. «O'zbekbaliqsanoat» uyushmasi rasmiy ma'lumotlari va klasterlar moliyaviy hisobotlari, 2019–2024-yillar.
16. Vahrushina M. A. Buxgalteriya boshqaruv hisobi / M. A. Vahrushina. – 9-nashr. – Moskva: Omega-L, 2011. – 576 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100